

"GO`RO`G`LI" DOSTONLARI TURKUMIDA PARI OBRAZINING TALQINI

Jaxongir Normatov ,

Xorazm viloyat teleradiokompaniyasi muharriri

Xalq dostonlari mifologiyasida pari obrazining ko`plab turlari mavjud. Xususan, daryo, dengiz bo`yida yashovchi xalqlar mifologiyasida “Suv parisi” , quruqlikda, cho`llarda, adir va tog`li hududlarda yashovchi xalqlar mifologiyasida “Pari”, “Ajina”, “Jin”, “Alvasti ” tarzida namoyon bo`ladi. Har bir xalq o`z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda bu obrazlarni turli xilda gavdalantiradi. Ezgulikka xizmat qiluvchi va yovuzlik urug`ini tarqatuvchi, insonlarni aldab suvga g`arq qiluvchi parilar haqida miflar to`qishgan. Bugungi kunda ham suv parilari haqidagi turli videolar internet tarmoqlari bo`ylab ko`p tarqalgan. Insonlar orasida bu hodisalarga ishonch yo`qligi aytilsa ham, ich-ichidan bu miflarning haqiqatga yaqinligiga inonch hosil qilganlar. Buning boisi azaldan xalqlar etnonimida miflarning ahamiyati juda katta bo`lganligi va aynan shu miflarga ishonib ulg`aygan xalqning ong ostidagi sezimlaridadir. O`zbek xalqi bolalarni tarbiyalashda to`polon qilmasliklari uchun turli “Alvasti” va ”Ajina”lar haqida qo`rqinchi ertak, matallar orqali sho`x bolalarni tartibga chaqirgan. Suv bo`ylarida o`ynamasliklari uchun ularga “Suv parisi”, “Yalmog`iz” haqidagi miflarni aytib, yolg`iz o`zi suv bo`yiga bormaslik, kechqurunlari cho`milmaslik haqida ko`p uqtirganlar.

Aynan mana shu holat badiiy adabiyotlarda ham turlicha talqinda uchraydi. “*U Akbaralining qissasidan bu jar haqidagi so`zlarni esladi: “Tagida yalmog`iz kamar bor deyishadi. Bolalarni u yerga yo`latishmasdi. Meni ham dadam u yerdan quvlagani-quvlagan edi... ”* (Asqad Muxtor. “Chinor” romani.) Ayanan mana shunday miflar asosida to`qilgan ertaklar ham mavjud. Butun dunyo ertaksevar bolalari tomonidan tan olingan , dunyoga mashxur ertaknavis Hans Kristian Andersen ham pari mifiga asoslanib “Suv Parisi” ertagini yozgan. Bundan ko`rinadiki, pari miflari butun dunyo miflogiyasida o`zining alohida o`rniga ega. Shu jumladan Xorazm dostonchiligidida ham “Pari” mifologiyasi o`zining salmoqli o`rni bilan ajralib turadi. “Go`ro`g`li” turkumiga kiruvchi dostonlarda aynan parilar ruhiy madad beruvchi, nasihatgo`y, sevikli yor, turli yo`l-yo`riqlar ko`rsatuvchi, afsun yoki dam solish bilan ko`maklashuvchi obraz sifatida talqin qilinadi. Masalan: “ Yunus Pari” dostoninda Go`ro`g`li o`ziga yor istab parini izlab ketadi. Bu doston boshdan oyoq mifologiyaga

"YANGI O'ZBEKISTONDA TABIIY VA IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR" RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

Volume 2, Issue 1, Yanvar 2023

borib taqaladi. Og`o Yunus parini Go`ro`g`li tushida ko`radi. Aynan "Tush ko`rish" mativi parilarning yashash manziliga ishora qiladi: "...*Shu yotishdo uxlob qoldi. Bir vaqtlar Go`ro`g`li dush go`rdi. Dushundo bir oq soqolli kishi galib, Go`ro`g`lini peshonosini o`pib oytdiki, ey Go`ro`g`li, san xafa bo`ma, xudo hammani o`z jufti bilan yoratgan. Sani jufting Qo`xi Qof tog`inda makon tutg`an Jahon podshoning qizi Og`a Yunus pari bo`ladi*". ("Yunus pari" dostoni. "Xorazm" nashriyoti. Urganch-2004. 58-59-bet.)

Aynan Go`ro`g`li tush ko`rib parini ko`rgan bo`lsa, Yunus pari ham uni tushida ko`rgan edi. "Xizmatkor 411 kampir dishona chiqib, Go`ro`g`lig`a bir qaradidon ortina qaytavardi. Galib parizodo oytdiki, ey Og`a Yunus Parizod, dushungda go`rgan odamzod shumi, dadi. Top o`zi shu, - dadi parizod." ("Yunus pari" dostoni. "Xorazm" nashriyoti. Urganch-2004. 64-65-bet.)

Go`ro`g`li parizod bilan yurtiga qaytayotgan payti parizodning noz-u karashmalariga dosh berolmay suykaladi. Aynan shu vaqtida parizodning Go`ro`g`liga nasihat qiladi, to`g`ri yo`lga solidi:

*Yunus aytar nikohni qiy,
Yomon ishdan nafsingni tiy,
Keyin ko`rarsan izzat-siy,
Sabr ayla, odam, sabr ayla.*

Parizod bu so`zni aytib tamom qilg`anan keyin Go`ro`g`li o`zining sabirsizliginan uyalib, qizarib, pushaymon atib, Chambilbelning ichina qarab ota qamchi bosavardi. ("Yunus pari" dostoni. "Xorazm" nashriyoti. Urganch-2004. 70-71-bet.) Yunus pari bu dostonda ijobiy obraz sifatida talqin qilinadi. "Xirmondali" dostonida Yunus pari Go`ro`g`liga nasihatgo`y sifatida talqin qilinib, Rum shahriga borib, Xirmondali bilan bellashmoqchi bo`lsang deya shunday nasihat qiladi: "Bu so`zni eshitib, og`a Yunus Pari aytdiki, sango bir nasihatim bor, avval san o`zingi 40 kun boqqiga qo`y, so`ng Bostom yurtina bor, u yerda Oshiq Oydin pir degan bor, shuni xizmatina borib, olti oy yurib, olti oydan so`ng undan fotiha olib borsang, Dalixirmonni oytishsang yengasan, go`rash tutsang yiqasan, bo`lmasa kallangni kesib, kalla minorasini yana balandroq etadi." ("Xirmondali" dostoni. "Xorazm" nashriyoti. Urganch-2004. 278-bet.) Go`ro`g`li" eposi turkumida yana ko`plab parilarning ham ijobiy, ham salbiy mifologik obrazi yoritiladi. "Avaz

uylangan”(Avazning uylanishi) dostonida aynan Xo`pnishon pari va Gulruxsor parilar duvoxon, makkor, ayyor, jodugar sifatida talqin qilinadi. Dostonda Go`ro`g`li uddabiron, ayyor, har qanday vaziyatdan chiqib ketuvchi obraz sifatida talqin qilinadi. Ana shu uddabironligi bois u Xo`pnishon parini aldab, uni o`ziga rom qilib, Gulruxsor parini Xo`pnishon pari yordamida uxlatib, qotirib qo`yadi. Bu jarayonda yovuz, makkora, jodugar parini to`g`ri yo`lga solidi. Aynan shu epizod orqali har qanday yovuz parilar ham shirin so`z bilan to`g`ri yo`lga kirishi talqin qilingan. Avazxon ham otasi Go`ro`g`liga o`xshab pariga uylanadi. Ota va farzand o`rtasidagi bunday bog`liqlik ular taqdiridagi ayollar bashariyatdagi ayollarni ularga munosib ko`rmagan xalq tomonidan parilar orasidan tanlanadi. Bu jarayon esa epos qahramonlarini ilohiyashtirishga urinish edi. Huddi yunon mifologiyasidagi Gerakl xudolar farzandi sifatida talqin qilingandek, Go`ro`g`li va Avazxonlar ham shunday talqin qilinadi. “Go`ro`g`lining o`limi” dostonida ham Go`ro`g`li o`lmasdan, tog`da odamlar ko`zidan g`oyib bo`ladi. Xulosa qilib aytganda “Go`ro`g`li” turkumiga kiruvchi dostonlardagi pari obrazining talqini turlicha holatlarda uchraydi. Yaxshi va yomon hislatlarga ega parilarining doston kompozitsiyasidagi ahamiyati o`ziga xos ruhda talqin qilinadi. Ular bilan bog`liq voqealar tasodif va qiziqarli tarzda yoritib berilgan. Bu mifologik obrazlar dostoniga alohida ko`tarinkilik beradi. Manan yetuklikka chorlaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Mif, Folklor va adabiyot. M. Jo`rayev va M.Narziqulova. “A.Navoiy” nashriyoti. Toshkent-2006.
2. Xorazm dostonlari Go`ro`g`li. S.R.Ro`zimboyev. “Xorazm” nashriyoti. Urganch-2004.
3. “Chinor” romani. A. Muxtor. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. Toshkent-2018.